



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN TAYYORLOV VA 1- SINFLAR O'QUVCHILARINI SENSOR JIHATDAN RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Pulatova Saodat Maxamadaminovna
Yangi asr universiteti dotsent v.b., PhD

Annotatsiya.

Maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinflar o'quvchilarini sensor rivojlantirishning yo'llari, bolaning sensor rivojlanishida predmetlarning tashqi xususiyatlari haqidagi tasavvurlarining shakllanishi va predmetlarning shakllari, rangi, hajmi, fazodagi holatini ajratish uchun mashqlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi davr, hissiy rivojlanish, idrok etish, sezish, diagnostika texnikasi, eshitish qobiliyati, psixologiya, sezgi sohasi.

ТЕХНОЛОГИЯ СЕНСОРНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ И 1-Х КЛАССОВ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Пулатова Саодат Махамдаминовна
исполняющая обязанности доцента, PhD Университет «Янги аср»

Аннотация.

В статье представлены способы развития сенсорного восприятия у детей дошкольного и 1-го классов с нарушениями слуха, формирование у ребенка восприятия внешних свойств объектов в процессе сенсорного развития, а также упражнения для различения формы, цвета, размера и положения объектов в пространстве.

Ключевые слова: дошкольный период, сенсорное развитие, восприятие, ощущение, методики диагностики, нарушение слуха, психология, перцептивная область.

TECHNOLOGY FOR SENSORY DEVELOPMENT OF PREPARATORY AND FIRST-GRADE STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS

Saodat Maxamadaminovna Pulatova
Acting Associate Professor, PhD University Yangi Asr

Annotation.

The article presents ways to develop the sensory perception of preschool and 1st grade students with hearing impairments, the formation of a child's perception of the external properties of objects in the sensory development of the child, and exercises for distinguishing the shape, color, size, and position of objects in space.

Key words: preschool period, sensory development, perception, sensation, diagnostic techniques, hearing impairment, psychology, perceptual area.

Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning bilimdonligi, ma'naviy kamoloti, g'oyaviy yetukligi davrimizning dolzarb vazifalaridandir. Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, ya'ni ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalar bilan bog'liq muxim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir. Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha haq-huquqlarini to'liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Hukumatimiz tomonidan inson mafaatlari ko'zlash va himoyalash barobarida, jamiyatimizning ajralmas qismi bo'lgan alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalar hayotga moslashtirish tizi-mining ilmiy-metodik ta'minotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan o'qitish mazmun, maxsus metodlarining ilmiy-nazariy asoslarini F.F. Rau[4], S.A.Zikov, R.M.Boskis[5], L.P.Nazarova[1], A.G.Zikeev, T.S.Zikova, K.G.Korovin, I.M.Gilevich, L.P.Noskova, Basova A.G.[6], Yegorov S.F. L.A.Golovchis ishlab chiqqanlar. Shuningdek, maxsus ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi eshitish qobiliyatini rivoj-lantirishda sensor jihatdan va bilish faoliyatini ilmiy-nazariy masalalari F.F.Rau, L.V.Neyman, V.I.Belyukov, Ye.P.Kuzmicheva, Ye.G.Rechinskaya, E.V.Parxalina[2], Slezina, V.A. Nudelman[7] tomonidan, maxsus ta'lim muassasalarida olib boriluvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatdan asoslashgan. Rus olimlaridan E.I.Leongard, T.V.Pelimskaya, N.D.Shmatko, L.A.Golovchis tomonidan olib borilgan so'nggi yillardagi tadqiqotlar eshitishda muammolari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta moslashtirish qilish masalalari xal etilgan.

Inson va atrof muhit doimiy o'zaro aloqada bo'lib, ushbu aloqadorlik turli xil: ko'rish, eshitish, teri, ta'm, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi.

Eshitish analizatori barcha analizatorlar ichida eng ahamiyatlilaridan sanaladi. I.M.Sechenovning fikricha, ko'pgina insonlarda eshitish sezgilari boshqa barcha sezgilarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Ya'ni inson atrof-olamni anglashda sezgi a'zolari ichidan eshitish analizatorini eng ko'p ishga soladi. Eshitish yordamida atrof olamning turli-tuman tovushlari anglanadi.

Sensor tarbiya tafakkur va ongni shakllantirish hamda rivojlantirish quroli bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, g'oyat murakkab va chalkash vaziyat yuzaga keladiki, u nazariy jihatdan muvaffaqiyatli hal qilinsa-da, amalda teskari natijalarga olib keladi.[8]

Go'dak hayotining birinchi oylaridanoq turli analizatorlar (ko'rish, eshitish, teri, harakatlantirish va h.k.) retseptorlaridan bir paytning o'zida olinadigan axborot fazoda harakatlanish yo'nalishini topishga, har xil vazifalarni bajarishga imkon beradigan ko'plab nisbiy aloqalarning hosil bo'lish manbaiga aylanadi (M.A.Fomin, 1992; I.Yu.Gorskaya, L.A.Suyangulova, DOOO).

Sezish ham bilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, sezishning mustaqil jarayon sifatida shakllanishi eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarda eshitadigan bolalarga nisbatan sekinroq sodir bo'ladi (Bodalev A.A[3]). Eshitadigan bolalar bilan eshitishda muammosi bo'lgan bolalar o'rtasidagi sifatli farqlar maktab ta'limi davomida u yoki bu darajada saqlanib qoladi (L.V.Plyushkina; V.M.Astafeva).

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar sensor rivojlanishda orqada qolishlarining asosiy sabablaridan biri ularda nutqiy muloqot va noverbal kommunikatsiya vositalarining (imo-ishoralarning) yo'qligi yoki keskin orqada qolishi bilan belgilanadi. Kar bolalarda sog'lom tengqurlariga nisbatan idrok rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlar ikki-uch yoshga kelib yanada aniqroq namoyon bo'ladi, chunki bu yoshga kelib eshitadigan bolalar nutqni egallagan bo'ladilar, bu esa ularning sensor rivojlanishini ancha tezdastiradi (L.A.Golovchis).

Shunga qaramay, bolaning sensor rivojlanishida shunday sharoitlar borki, bunda saqlanib qolgan analizatorlar ishdan chiqqan analizator bajaradigan funksiyani o'z zimmasiga oladi. Eshitishda muammolari bor bolalarda tovushlarga boy olamni bilish imkoniyatini ularda mavjud analizatorlar yordamida korreksiyalash uchun, buning uchun ularda qanday kompensatorlik imkoniyatlari borligini aniqlash lozim. Masalan, ayrim vaqt parametrlarini tahlil qilishda kar bola harakat analizatoriga tayanishi mumkin. To'g'ri, harakat analizatori vaqtini eshitish analizatoridek aniq aks ettirmaydi, shunday bo'lsa-da, maxsus ta'lim sharoitida bunday kompensatsiyaga imkon bor va u katta samara keltiradi (R.M.Boskis, 1963). Bu jihatdan vibratsiyani (tebranishni) sezish katta ahamiyatga ega, chunki ular o'z tabiatiga ko'ra eshitish

sezgilariga yaqin. Eshitishni ham, vibratsiya sezgisini ham shakl jihatdan o'xshash qo'zg'atuvchilar keltirib chiqaradi. Vibratsiyani sezish terining tovush to'liqlari tebranishiga, ayniqsa zirillayotgan (vibratsiya qilayotgan) jismlar tebranishiga ta'sirchanligi tufayli sodir bo'ladi. Eshitishda kamchiligi bor bolalar, jismoniy rivojlanishlaridagi o'ziga xos jihatlar tufayli, predmetlarning vibratsiyalanish xususiyatlari bilan kechroq tanishadilar. Bu taktil-vibratsion sezishning orqada qolishiga sabab bo'ladi. Vaholanki, mana shu sezgilarga tayanib, kar bolalar yuqori rivojlanish darajasiga erishishlari mumkin. Shuning uchun kar bolalar uchun mo'ljallangan MTMdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida tezligi, xarakteri, o'rni va h.k. bo'yicha har xil murakkablikdagi vibratsion sezgini idrok etishni kar bolada shakllantirishga qaratilgan vositalar va metodlarni o'z ichiga olgan maxsus o'quv mashg'ulotlarini olib borish lozim. Bolaning sensor rivojlanishi deganda predmetlarning tashqi xususiyatlari haqidagi tasavvurlarining shakllanishi va bola idrokining rivojlanishi tushuniladi: predmetlarning shakllari, rangi, xajmi, fazodagi holati, shuningdek hidi, mazasi va h.k.ni ajratishi.

Sensor rivojlanish, bir tomondan, bolaning umumiy akliy rivojlanishining poydevorini tashqil etsa, boshqa tomondan, maktabgacha tarbiya muassasasi va maktabda bolaning samarali ta'lim va tarbiya olishida muhim o'rin egallaydi. Bunda bolaning mehnat faoliyati yetakchi o'rin egallaydi.[9]

Atrof olam predmet va xodisalarini idrok etish orqali ularni anglash boshlanadi. Boshqa barcha anglash shakllari – xotira, tafakkur, tasavvur idrok obrazlari asosida quriladi, ularni qayta ishlash natijasi hisoblanadi. Shuning uchun normal akliy rivojlanish idrokka to'liqligicha tayanmay namoyon bula olmaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida bolalar rasm chizishga, yopishtirishga, qurish, yasashga o'rganadilar, tabiat hodisalari bilan tanishadilar, matematika va savod asoslarini o'zlashtira boshlaydilar. Barcha sohalarida bilim va malakaga ega bo'lish, doimiy ravishda atrofdagi predmetlar xususiyatlariga nisbatan e'tiborli bo'lishni, ularni xisobga olish va ulardan foydalanishni talab etadi. Chunki, predmetning rasmini chizish uchun bola uning shakl va rangining o'ziga xosligini aniqlashi, chizilgan rasm bilan aslining o'xshash tomonlarini ko'ra olishi kerak.

Qurish - yasash predmet shaklini (ko'rinishini), uning tuzilishini o'rganishni talab qiladi. Bolalar qismlarni fazodagi o'zaro munosabatini aniklaydilar va namuna xususiyatlarini mavjud material xususiyatlari bilan moslashtiradilar. Predmetlarning tashqi xususiyatlarida doimiy mo'ljal olmay turib, jonli va jonsiz tabiat xodisalari haqida yorqin tasavvur olish mumkin emas. Elementar matematik tasavvurlarni hosil qilish deganda, geometrik shakllar bilan tanishish va ularning turlarini bilish, ob'ektlarni xajmiga kura taqqoslash tushuniladi.

Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorgarligi uning sensor rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Psixologlar tomonidan olib borilgan izlanishlarning ko'rsatishicha, bolalarning ta'limda (asosan 1-sinfda) duch kelishi mumkin bo'lgan kiyinchiliklari idrokning yetarli darajada aniq va egiluvchan emasligi sababli yuz beradi, natijada harflarni yozishda xatoliklar, rasm chizish va qo'l mehnati darslarida narsalar yasashdagi aniqsizlik xolatlari uchraydi.

Sensor tarbiya bolaning kelajak hayoti uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligiga amin bo'ldik. Bu maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyoti oldiga maktabgacha tarbiya muassasasida qo'llash uchun yangi va samarali ta'lim-tarbiya vositalari va usullarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Sensor tarbiyaning muhim yo'nalishi bolada sensor madaniyatni rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Maktabgacha pedagogikaga «sensor madaniyat» tushunchasi M. Montessori ishlari orqali kirib keldi.. Birok, uning fikricha, bunday madaniyatga ega bo'lish uchun bolaga predmetlarni ularning shakli, rangi, xajmi, va boshqa xususiyatlari bo'yicha farqlashni o'rgatish kerak.

Bolalar shakl, rang, hid, tur kabi tushunchalarga o'zlarining kundalik hayotlarida o'yinchoqlar va kundalik ro'zg'orda uchraydigan predmetlar orqali to'qnash keladilar, shuningdek, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik san'atlari namunalari bilan ham

tanishadilar. Va, nihoyat, xar bir bola avval ixtiyorsiz ravishda Bularning barchasini o'zlashtiradi. Birok o'zlashtirish ixtiyorsiz, kattalarning pedagogik yordamisiz yuz bersa, bunda u yuzaki, to'liq emas bulib koladi. Mana shu o'rinda sensor tarbiya - bolani insoniyat sensor madaniyati bilan rejali, tizimli ravishda tanishtirish yordamga keladi.[10]

Quyida bolalarni sensor jihatdan rivojlantirish texnologiyasidan namuna berilyapti:

“Qidirib top va nomini ayt” mashqi.

Maqsad: muayyan o'lchamdagi va rangdagi geometrik shaklni tez topish malakasini mustahkamlash.

Jihozlar: flanelegraf, har xil rang va o'lchamdagi 10-12ta geometrik shakl (doiralar, kvadratlar, uchburchaklar, to'g'ri burchaklar).

Qoidalar. Savoldan keyin darhol javob berilishi va savolda ko'rsatilgan hamma belgilar (rang, o'lcham) aytilishi kerak. Shaklni tez va to'g'ri ko'rsata olgan bola uni o'ziga oladi. Mashq ohirida natijalar hisoblanadi va eng ko'p kartochkaga ega bo'lgan bola g'olib deb e'lon qilinadi.

O'yin xatti-harakatlari qiziqarli, musobaqa ruhida kechishi kerak.

Yo'l-yo'riqlar: flanelegrafda har xil rang va o'lchamdagi 10-12ta geometrik shakl (doiralar, kvadratlar, uchburchaklar, to'g'ri burchaklar) betartib joylashtiriladi. Avval tarbiyachi, keyin o'yinni olib borayotgan bola qolgan bolalarga savollar bilan murojaat qiladilar: “Kim katta doirani topdi?”, “Kim kichkina ko'k rangli kvadratni topdi” va h.k.



Rasm 1. “Kubiklar” mashqi.


Maqsad: bitta va ikkita belgi asosida katta-kichiklik (o'lcham), rang idrokini rivojlantirish.

Jihozlar: har xil katta-kichiklikdagi rangli kubiklar. Piramidalar, chelakchalar, matryoshkalardan ham foydalanish mumkin.

Yo'l-yo'riqlar: vazifa bola bilan birgalikda o'yin davomida olib boriladigan dialog shaklida bajariladi.

A. O'ynashni yaxshi ko'rasanmi? To'palon qilishni-chi? Men ham to'palon qilsam bo'ladimi? (katta odam kubiklarni polga sochib tashlaydi).

B. Menga kubiklarni yig'ishga yordam berasanmi? Rahmat. Unda menga eng katta kubikni olib ber. Endi eng kichkinasini ber. Endi esa qizil rangli eng katta kubikni, kichkina sariq kubikni olib ber-chi... va h.k.



Rasm 2. “Kubiklar” mashqi jarayoni

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, eshitishda muammolari bo‘lgan, ayniqsa kar bolalarning to‘laqonli rivojlanishi va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvi ularning sensor rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Sensor tarbiya bolada atrof-olamni idrok etishning asosiy poydevorini yaratib, keyingi bilish jarayonlari tafakkur, xotira, tasavvur va nutq rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Eshitish analizatorining yetishmovchiligi sharoitida saqlanib qolgan analizatorlar (ko‘rish, harakat, taktil-vibratsion sezgi va boshqalar) imkoniyatlaridan maqsadli va tizimli foydalanish orqali samarali kompensatsiyaga erishish mumkin. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim muassasalarida sensor madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlar, mashqlar va maxsus pedagogik texnologiyalar bolalarning idrok aniqligi, kuzatuvchanligi va bilish faolligini oshiradi. Sensor rivojlanishning yetarli darajada ta‘minlanishi bolalarning maktab ta‘limiga tayyorgarligini kuchaytiradi, o‘qish, yozish, rasm chizish, qurish-yasash va elementar matematik tushunchalarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni kamaytiradi. Shu bois, maktabgacha maxsus ta‘lim tizimida sensor tarbiyani takomillashtirish, yangi va samarali usul hamda vositalarni ishlab chiqish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Sensor tarbiyani ilmiy asoslangan holda, rejalashtirilgan va izchil tashkil etish eshitishda muammolari bo‘lgan bolalarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda ularni jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Назарова Л.П. Методика развития слухового восприятия у детей с нарушениями слуха. – М.: Владос, 2001. – 185 б.
2. Речицкая Е.Г., Пархалина Э.В. Готовность слабослышащих дошкольников к обучению в школе” учебник. – М.: Владос, 2003. – 160 б.
3. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. – М.: 1983.
4. Рау Ф.Ф. Формирование устной речи у глухих детей. –М.: Педагогика, 1981. – 280 с.
5. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. – М.: Просвещение, 1988. – 126 с.
6. Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогики. – М.: “Просвещение”, 2004 . – 267 б.
7. В.А. Нудельман и др. Особенности психического развития глухого ребенка. – М., 2005. – 350 б.

8. Л.Р.Мўминовна, Ш.М.Амирсаидова, З.Н.Мамаражабова, М.У.Ҳамидова, Д.Б.Якубжанова, .М.Джалолова, Н.З.Абидова. Махсус психология. – Т.:, “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”. 2013. – 280 б.
9. С.М.Пулатова . FEATURES OF DIAGNOSING THE LEVEL OF SENSORY DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 5, 2020 ISSN 2056-5852.2020.
10. С.М.Пулатова. Эшитишида нуқсони бўлган ўқувчиларни сенсор тарбияси // “Бола ва замон” илмий методик журнал. 4 сон, 2019 йил. – Б. 102-106